

# JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

**№ 2 (7) 2022** <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент</li><li>10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц</li><li>11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**TURLI MUHITDA SOYA O'SIMLIGINING RIVOJLANISHI**

*Tulaganova Muhayyo Asqar qizi, Avalbayev Olimjon Narkuziyevich*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turli muhitda soya o'simligining rivojlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Annotation.** This article provides information on the development of the soybean plant in different environments.

Soya (*Glycine*) – dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't o'simliklar turkumi, dukkakli don va moyli ekin. Soyaning 10 turi Afrika va Janubiy-sharqiy Osiyoning nam tropik va subtropik, 1 yovvoyi turi Uzoq Sharqda uchraydi. Vatani - Xitoy. Soya juda qadimdan ekiladigan ekin. Miloddan avvalgi 5 ming yillikdan boshlab ekib kelinadi. AQSh, Rossiya, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Ukraina, Moldaviya, Gruziya va O'zbekistonda yetishtiriladi. Jahon bo'yicha soya ekin maydoni 73,6 mln ga, o'rtacha don hosildorligi 22,1 ts/ga. O'zbekistonda XX asrning 60 yillaridan keng tarqala boshladi. Oddiy soya turining ildizi yaxshi rivojlangan, o'q ildiz, sershox, tuproqqa 2,0 m chuqurlikgacha kirib boradi, asosiy qismi haydalma qatlamda joylashadi (ildizida tuganak bakteriyalar rivojlanadi). Poyasi dag'al, tsilindrsimon, tik o'sadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Bo'yi 1,5 sm dan 2,0 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2-8 ta bo'ladi. Bargi sertuk, bandli, bandining uzunligi 8-20 sm, barg yaprog'ining uzunligi 13-15 sm, guli mayda, oq yoki pushti, shingil gulto'plamga yig'ilgan, barg qo'ltig'ida joylashadi. Mevasi dukkak, sariq, qora, qo'ng'ir, sertuk. Har bir dukkagida 2-6 ta don bor, 1000 ta donining vazni 40-42 gr. Tarkibida 24-45% oqsil, 13-37% yog', 20-32% uglevodlar, 1-2% litsitin, D,B, Ye va boshqa vitaminlar bor. Urug'idan yog', oqsil va litsitin olinadi. O'sish davri 100-150 kun. Soya issiqsevar va namsevar, yorug'sevar qisqa kun o'simligi hisoblanadi. 21-23 °S haroratda yaxshi rivojlanadi. Urug'i 8-10 °S haroratda unib chiqadi. Soya o'zidan changlanadi. Gullash davri 15-55 kun davom etadi. Undan soya uni va moyi olinadi. Doni, pishib yetilmagan (dumbul) dukkagi ovqatga ishlatiladi. Soya unidan sut, tvorog, qandolat mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Somoni, ko'k poyasi, silosi ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. O'zbekiston sholichilik institutida 1981-88 yillarda soyaning O'zbekiston-2, O'zbekiston-6, Do'stlik navlari chiqarilgan va barcha viloyatlar uchun rayonlashtirilgan.



Soya o‘simligida bakterioz, septorioz, askoxitoz, fuzarioz kasalliklari uchraydi, zararkunandalari - tunlamlar, o‘rgimchakkana, qorakuya hisoblanadi.

Soya o‘simligi Jizzax viloyati Jizzax shahar hududida ekib o‘stirildi. Dastlab soyani 2022 yil 16 aprel kuni kichik yer maydoniga ekildi. Yomg‘ir ko‘p yog‘ganligi sababli soya urug‘lari nanga to‘yindi. Soya o‘simligi qanday muhitda yaxshi o‘shishini kuzatish maqsadida 2022 yil 25 aprel kunida tuproq, go‘ng va biogumus aralashmasiga, tuproq va go‘ng aralashmasi, biogumusga ekildi.



### Soya o‘simligining rivojlanishi

Soyani 3 ta muhitda 15 tadan ekildi.

Tuproq, go‘ng va biogumusli aralashmada 15 ta urug‘dan 12 tasi tuproq va go‘ng aralashmasida 6 tasi, biogumusga 13 tasi unib chiqdi.

### Soya o‘simligi urug‘ining 3 xil muhitda unib chiqishi

T.r.	Muhit nomi	Urug‘lar soni (ta)	Unib chiqqan urug‘lar soni (ta)	ko‘rsatkich (% hisobida)
1	Tuproq, go‘ng va biogumus aralashmasi	15	12	80
2	Tuproq va go‘ng aralashmasi	15	6	40
3	Biogumus	15	13	86





### Kuzatuv jarayonlari

#### Ekilgan soya o'simligi chinbarglarining

Muhit	Chinbarglar soni (ta)	Chinbarglar hosil bo'lgan sana	Chinbarglarning uzunligi (sm)	Chinbarglarning eni (sm)
Tuproq, go'ng, biogumus	2	28.04.2022	2	1,5
Tuproq va go'ng	2	28.04.2022	2	1,5
Biogumus	2	28.04.2022	2,5	2,0

#### Turli muhitda soya o'simligi poya va chinbarglarining o'sish ko'rsatkichi

Sana	Poyasining uzunligi (sm)	Barglar soni (ta)	Barglarinig uzunligi	Barglarining eni
28.04.2022	4-6	2	1,5-2,5	1,0-1,5
1.05.2022	9-11	2	3-4	2,5-3,5
6.05.2022	18-22	2	4-5	3,5-4,5
11.05.2022	24-26	4	4,5-5	4-5
16.05.2022	26-28	4	4,5-5	4-5
20.05.2022	28-30	5	4,5-5	4-5
25.05.2022	29-31	5	4,5-5	4-4,5

30.05.2022	30-32	5	4,5-5,5	4-4,5
4.06.2022	30-32	4	4,5-5	4-4,5
9.06.2022	29-31	2	4,5-5	4-4,5
14.06.2022	28-32	2	3,5-4,5	3-3,5

Tuproq, go'ng va biogumus aralashmasiga ekilgan soya o'simligi 14.06.2022 sanasida o'sishdan to'xtadi, barglari quriy boshladi, qurishga namlikning yuqori bo'lishi sabab bo'lishi mumkin.

Tuproq va go'ng aralashmasiga ekilgan soya o'simligi 9.06.2022 sanada o'sishdan to'xtadi, barglari qurib to'kildi, poyachasidan chirish boshlandi.



### **Soya o'simligining qurishi**

Biogumusga ekilgan soya o'simligi 11.06.2022 sanasida o'sishdan to'xtadi, barglarini qurib boshladi. Bunga namlikning yuqori bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turli muhitda soya o'simligining o'sish ko'rsatkichlari turlicha ekanligi aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. “Мавжуд ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, 2020 йил ҳосили учун қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш ва маҳсулот етиштиришнинг прогноз ҳажмлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1025-сонли қарори.

2. Атабаева Х.Н., Худайкулов Ж.Б. “Ўсимликшунослик”. “Фан ва технологиялар” нашриёти. –Тошкент. 2018. -Б. 199-206.

3. Сулаймонов Б.А., Атабаева Х.Н. ва бошқалар. “Соя экинини етиштиришни биласизми” ТошДАУ тахририят нашриёт бўлими. –Тошкент. 2017. –Б. 4-6.

4. Ёрматова Д.Ё., Хушвақтова Х.С. “Мойли экинлар”. –Зарафшон. 2008. – Б. 11-12.

5. Атабаева Х.Н., Юлдашева З.К. “Мойли экинлар биологиясининг илмий асослари ва етиштиришда инновацион технологиялар”. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Асосий кутубхонаси. –Тошкент. 2019.